

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QISH DARSLARIDA TEZ AYTISH VA TOPISHMOQLAR AHAMIYATI

Ilmiy rahbar: Abdunazarova Zaynab Allamurod qizi

Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Abdumurodova Saida Azim qizi

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida tez aytish va topishmoqlarning o‘quvchining nutqini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Tez aytish mashqlari orqali kichik yoshdagi o‘quvchilarning tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilmaslik, tushirib aytish yoki tovushlar o‘rnini almashtirish kabi nutq kamchiliklarini bartaraf etish yo‘llari ko‘rsatilgan. Shuningdek, topishmoqlarning bolalar tafakkuri, so‘z boyligi va mantiqiy fikrlash qobiliyatiga ta‘siri, ular ustida ishlashning samarali usullari bayon qilingan. Xalq og‘zaki ijodining ushbu kichik janrlari misolida o‘qish darslarining samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Xalq og‘zaki ijodi, topishmoqlar va tez aytishlar, og‘zaki adabiyot, yozma adabiyot. kichik maktab yoshidagi bolalar, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari.*

Hozirgi kunda yurtimizda ta‘limga bo‘lgan e‘tibor juda katta. Yoshlarimizni ta‘lim bo‘yicha sport bo‘yicha erishayotgan yutuqlarini biz faxr bilan ayta olamiz. Bunga sabab yurtimizda ta‘limni birinchi o‘ringa qo‘yayotganimiz va prezidentimizning biz yoshlarga yaratib berayotgan imkoniyatlari deb bemaolol ayta olaman. Shunday ekan bizni ta‘lim tizimimiz ham uzluksiz ta‘limni tanladi. Uzluksiz ta‘lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta‘minlovchi shaxs jamiyat va davlat iqtisodiy, ilmiy- texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir. Bu ta‘lim ijodkor, ijtimoiy, faol, ma‘naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatdosh kadrlar ham tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi. Ta‘limning eng asosiy poydevori bu boshlang‘ich ta‘limdan boshlanadi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Boshlang‘ich ta‘lim- umumiy o‘rta ta‘limning dastlabki bosqichi. Boshlang‘ich ta‘lim umumiy o‘rta ta‘lim olish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim va ko‘nikma asoslarini shakllantiradi. Boshlang‘ich sinflarda bolalarni o‘qish savodxonligini oshirish, bola nutqini ravon va ta‘sirchanligini oshirishda tez aytishning o‘rni ham bo‘lakcha .

Ma‘lumki xalq amaliy san‘ati turlaridan biri bo‘lgan tilni burish vositasi ma‘lum nutq tovushlarining takroriy takrorlanishi yoki tovushlarning so‘z va iboralar tarkibida murakkab joylashuviga asoslangan bo‘lib, talaffuzni qiyinlashtiradi. Ayniqsa, bu iboralar tez aytilsa, so‘zlovchi adashib, bu murakkab tovushlarni talaffuz qila olmay qolsa, bu tinglovchilarda nazoratsiz kulgiga sabab bo‘ladi. SHuning uchun o‘zbek tilidagi bu iboralar til burmalari deyiladi. Suhbat o‘zbek xalq amaliy san‘atining bir turi. Tez nutqda xato bo‘lishi mumkin bo‘lgan qofiyali so‘zlardan tashkil topgan jumlar qo‘llaniladi. U ma‘lum tovushlarni, ayniqsa jarangli undoshlarni takrorlaydi va so‘zlar tez, ritmik va urg‘u

bilan talaffuz qilinadi. Masalan, besh mis bochka, besh mis bochka ichida besh ming mis barrel. Tez nutq bilan har bir tovush to'g'ri va ravon talaffuz qilinishi kerak. Tovushlarni talaffuz qilishda xatoga yo'l qo'ygan tomon (shaxs) mag'lub hisoblanadi. Ilgari keksalar ham to'y va yig'inlarda tez kitobxonlik bo'yicha musobaqalashib, madaniy hordiq chiqarishgan. Keyinchalik u asosan bolalar repertuariga aylandi. Tezkor nutqlar bolalarning fikrlash qobiliyatini, so'z boyligini va ravonligini oshirishga yordam beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari topishmoqlarni solishtirish va qiyoslash yo'li bilan javobini topishga intiladilar. Topishmoq matnini o'qish orqali o'quvchilar avvalo, topishmoq janriga xos xususiyatlari o'rganadilar, to'g'ri o'qish malakasini egallab beradilar. Topishmoq javobini topishda yashirin berilgan belgi, predmet, voqea-hodisalarga asosiy e'tiborini qaratadi. O'qituvchi, topishmoqni o'qiyotganda uni doskaga yozib qo'yadi yoki topishmoq yozilgan kartonni doskaga olib qo'yadi. Topishmoqning mazmuni tushuntirib bo'lingach, uni o'quvchilar daftariga ko'chirib oladilar, o'quvchilar topishmoqning javobini topgach, uning to'g'rimi yoki noto'g'ri ekanligini topishmoq mazmunidan va qo'shma ma'lumotlardan bilib oladilar. Topishmoqqa javob topish o'quvchini tetiklashtiradi, Charchagan vaqtda dam beradi. Ba'zi bir o'qish darslarini kuzatganimizda, juda ham zerikarli o'tilganligiga guvoh bo'lganmiz. Shunday paytda, ya'ni o'quvchilarda zerikish, toliqishni sezganda "Topishmoq topish" o'yini o'tkazilsa, o'quvchilar tetiklashib, darsga qiziqishlari ortadi, hamda ular madaniy xordiq ham oladilar. Topishmoqlar 1-4 sinflarning savod o'rgatish, imlo va nutq o'stirishga doir darslarida o'rganiladi. Boshlang'ich sinflar, o'quvchilarning har bir ta'lim muhitiga qatnashishdan oldin o'rganishni boshlash uchun mo'ljallangan sinflardir. Ushbu sinflar o'quvchilar uchun qo'shimcha darsliklar va ko'rsatmalar orqali ta'minlanadi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar o'zlarini o'rganish uchun odatiy ma'lumotlarni va ko'nikmalarni olishadi. Boshlang'ich sinflar o'quvchilarni ko'rsatmalar, ranglar, sonlar va harflar bilan tanishib chiqish, haqiqiy va so'zlar orasidagi farqlarni tushunish, qo'shimcha harf va so'zlarni o'rganish, matematika va tushunchalar bilan ishlash va boshqalar kabi asosiy fanlarga kirishga tayyorlaydi. O'quvchilar boshlang'ich sinflarda o'qish, yozish, eshitish va gaplashish qobiliyatlarini rivojlantirishadi. Ular ko'plab va amaliy mashg'ulotlar orqali o'rganishni davom ettirishadi. Boshlang'ich sinflar o'quvchilarga o'zlarini o'rganish va o'z bilimlarini rivojlantirishga asosiy qo'llanmalar beradi. Boshlang'ich sinflar o'quvchilarda o'ziga ishonish, o'z-o'zini boshqalarga ifodalanish, jamiyatdagi boshqa insonlar bilan muomala qilish va ijtimoiy tashkilotlarga oid asosiy qoidalarni o'rganishga yordam beradi. Ular o'quvchilarning asosiy ta'limning katta qismidir va mustaqil o'rganishning asosiy qadamidir. Boshlang'ich sinflar o'quvchilarni keskin, nazariy va amaliy bilimlar sohasiga kirishga tayyorlaydi. Bu sinflar o'quvchilarning o'z fikrlarini ifoda qilish, muammolarni yechish va ijodiy g'oyalarni o'rganish imkoniyatlarini rivojlantiradi. Shuningdek, boshlang'ich sinflar o'quvchilarda hamkorlik, jamoatchilik va o'z-o'zini boshqalarga qarshi maslahatlashishga qiziqishni oshirishga qaratilgan. Bu usullar boshlang'ich sinflarda topishmoq va tez aytishni o'rganish uchun faol holda ishlatiladigan yo'llardan faqat

ba'zilaridir. O'quvchilar bilan o'zaro munosabat va motivatsiyalariga qarab, ular uchun eng qiziqishlarini tortadigan yo'llarni topish juda muhimdir.

Boshlang'ich sinflarda xalq og'zaki ijodi juda muhim o'rin tutadi va u adabiy ta'limning ajralmas qismi hisoblanadi. U nafaqat o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi, balki ularni mustaqil fikrlashga undaydi, so'z boyligini oshiradi hamda nutq madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Xalq og'zaki ijodi bir yo'nalish bilan cheklanib qolmay, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi jihatlarni o'zida mujassam etadi. Boshlang'ich sinflarda adabiy ta'limni to'g'ri tashkil etish hamda o'quvchilarning ma'naviy kamolotini ta'minlashda topishmoqlarning o'rni alohida ahamiyatga ega. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, topishmoqlar ko'p asrlik xalq donishmandligining durdonalari bo'lib, ular insonning idroki, kuzatuvchanligi va poetik tasavvur qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga, ular nafaqat quvnoq o'yin yoki hordiq chiqarish vositasi, balki ajdodlarning ruhiy olami va tarixiy o'tmishini anglashda muhim manba hamdir. Shu sababli topishmoqlarni tarixiy-madaniy merosning bebaho namunasi sifatida baholash mumkin. Umuman olganda, xalq og'zaki ijodi namunalarini faqatgina ko'ngilxushlik vositasi sifatida qarash to'g'ri emas. Har bir og'zaki ijod namunasi o'sha millatning tafakkuri, ma'naviy qiyofasi va tarixiy xotirasini o'zida aks ettiradi. Shuningdek, bolalar nutqini rivojlantirishda tez aytishlar (skorogovorkalar) ham muhim o'rin tutadi. Tez aytish bilan shug'ullanish asosan bog'cha yoshidan boshlab kichik maktab yoshigacha davom etadi. Bu davrda bolalarning nutqi faol rivojlanadi, ular eshitganlarini tez eslab qoladi va takrorlaydi. Biroq bolalar nutqida uchraydigan ayrim kamchiliklar ko'pincha oila muhitiga ham bog'liq bo'ladi. Ayrim ota-onalar farzandlari bilan "chuchuk til"da, ya'ni noto'g'ri va qisqartirilgan so'zlar bilan muloqot qilishadi. Masalan, "Chuchu obeymi?" o'rniga "Suv olib beraymi?", "Kaka yisimi?" o'rniga "Qand yeysizmi?" deb to'g'ri talaffuzda gapirish lozim. Aks holda, bolalarning nutqi noto'g'ri shakllanishi mumkin. Bu holat hatto kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ham saqlanib qoladi. Shu sababli o'quvchilarda so'zlarni to'liq va to'g'ri talaffuz qilish ko'nikmalarini shakllantirishda tez aytishlardan keng foydalanish zarur. Har bir tovushni o'rganish jarayonida tez aytish mashqlari orqali bolalarning nutqini ravon va aniq qilish mumkin. Boshlang'ich sinf darsliklarida ham tez aytishlar asosida tuzilgan turli mashq va metodlar berilgan bo'lib, ular o'quvchilarning nutqini rivojlantirishga samarali xizmat qiladi.

Misol uchun, 1-sinf o'quvchilarining eng sevimli kitobi "Alifbe" kitobida [T] – tovushiga oid mashq berilgan. Chunki bu kitob o'quvchilarga sehrlil tovush va harflar olamini so'zlar dunyosini to'g'ri va ravon talaffuz qilishni o'rgatadi.

Turna tipratikanni turtdimi?

Tipratikan turnani turtdimi?

Berilgan tez aytishni o'quvchilar yod olishi va tez, to'g'ri aytishlari talab qilinadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'pincha [T] tovushini [K] yoki [D] tarzida talaffuz qilishlari mumkin. [T] – tovushi qisqa aytiladi va tishlar bir-biriga yaqinlashishi orqali yuzaga keladi. Bu tovushga oid tez aytishning berilishi esa o'quvchilar nutqidagi

nuqsonlarni bartaraf etishga yordam beradi. Har bir soʻzning boshidagi [T] tovushining takrorlanishi, bu tovushni toʻliq talaffuz qilishlariga yordam beradi.

4-sinf “Oʻqish savodxonligi” darligida tez aytishlar har bir mavzuning tugallanish qismida matnga mos ravishda berilgan. Darslikning 35-betida berilgan Nasiba Erxonovaning “Qargʻa va paxta” ertagining mustahkamlash qismida mavzuga mos ravishda berilgan tez aytishga eʼtibor qaratamiz. Paxta qattiqmi, taxta qattiqmi? Sodiq momiq paxta terdi. Bu tez aytishlarning berilish sababi ertakning mazmuni ham paxtaga oidligidadir. Shuning uchun oʻquvchi faqatgina tez aytish orqali faqatgina toʻgʻri talaffuzga eʼtibor qaratibgina qolmasdan, uning mazmunini ham tushunishi kerakligini anglashimiz mumkin. Tez aytish bilan bogʻliq turli xil metodik oʻyinlarimiz ham mavjud. Bularidan “Kim koʻp tez aytishni ayta oladi?”, “Bir nafasda tez ayting”, “Tez aytishdagi tushirib qoldirilgan soʻzni toping va tez aytishni ayting?”, “Rasmga mos tez aytish ayting”, “Soʻzlardan tez aytishni hosil qiling?”, “Ertakni oʻqing va unga mos tez aytish ayting” va h.k.

“Kim koʻp tez aytishni ayta oladi?” oʻyini. Bu oʻyinda oʻquvchilar jamoaga boʻladilar va birma-bir tez aytish aytadilar, toʻxtab qolgan jamoa yutqazgan hisoblanadi.

1-jamoa:

Boqi qoqini Soqiga sotdimi,

Soqi qoqini Boqiga sotdimi?

2-jamoa:

Asalari asalini ayiqdan ayamadi.

3-jamoa:

Ergash Erkinga ergashdimi, Erkin Ergashga ergashdimi? ...

Shu tarzda oʻyinni davom ettiradilar

Xulosa qilib shuni aytishimiz lozimki, oʻquvchilar nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etish kichik yoshdan boshlanadi. Biz qanchalik erta bu kamchiliklarni yoʻqotsak, shunchalik muvofaqqiyatga erishgan boʻlamiz. Bolalar nutqidagi kamchiliklarga emas, balki ularning dunyoqarashi, fikrlashini ham rivojlantirish darkor. Oʻquvchilarni har jihatdan yetuk, barkamol boʻlishida, avvalo, oʻqituvchilarning oʻrni katta hisoblanadi. oʻqituvchilar qanchalik oʻz ishiga fidoiy boʻlib, sitqidildan oʻquvchilarga bilim bersa, yurtimiz ravnaqi ham yuksalib boraveradi. Xulosa qilib aytish mukinki yuqorida taʼkidlab oʻtgan yoʻllar oʻquvchilarni boshlangʻich sinflarda qiziqtirish, ularga faollashish imkoniyatini berish va tez aytishni oʻrganishda yordam berishga yordam berishi mumkin. Bu jarayonlar oʻquvchilarning oʻzlashtirish va taʼlim jarayonlariga qiziqishlarini oshirishga va oʻrganishni qulay va qiziqarli qilishga koʻmaklashadi. Bu yoʻllar boshlangʻich sinflarda topishmoq va tez aytishni oʻrgatishda yordam berishi mumkin. Ushbu usullardan foydalanish, oʻquvchilarning oʻz fikrlarini ifodalash, boshqalar bilan hamkorlik qilish va muhokama qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 4-sinf “O‘qish savodxonligi” 1-qism. Novda nashriyoti. 2023-yil.
2. Teshboyev D.R. (2021). On the semantical analysis of the parypredicative units of complex following. *Theoretical & applied science*, (4), 390-392.
3. Тешабоев Д.Р. (2020). Эргаш гапли кўшма гапларни шакллантиришда антитезанинг ўрни. *Международный журнал искусство слова*, 3(5).
4. Тешабоев Д.Р. (2022). Эргаш гапли кўшпредикатив бирликлар фалсафий мазмун категорияси сифатида. *Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali*, 2(11), 51- 55.
5. Yo‘ldoshev J.G., Usmonov S.A. “Pedagogik texnologiya asoslari”, - T.,”O‘qituvchi”, 2014.
6. Nurmatov M. Ifodali o‘qish tugaragi. “Til va adabiyot ta’limi” 2008.
7. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi: Nasaf, 2002.
8. Shahnoza, I., & Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA ERTAKLARNING O‘RNI. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 806-808.
9. “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi” Omonulla Madayev. 106-bet
10. Ikromjonovna, J. S. (2023). UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA JORIY ETILGAN YANGI DARSLIKLARNING AFZALLIK JIHATLARI. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 661-663.
11. Jumanova, S. (2023). AUTUMN MOTIF IN THE POETRY OF USMAN AZIM. *Scientific Journal of the Fergana State University*, 28(2), 29.
12. Ta’lim jarayonida so‘z boyligini oshirishning asosiy omillari. “O‘zbek tili” doimiy anjumani 3-yig‘inining tezislari. T.2009.